



TAYANCH HARAKAT A'ZOLARI BUZILGAN O'QUVCHILARGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATDAN YONDASHUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Buxoro davlat pedagogika instituti
“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor Sadullayev Baxodir Baxtiyorovich

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ta'nh-harakat a'zolari buzilgan o'quvchilarga pedagogik-psixologik yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, me'yoriy-huquqiy asoslar hamda maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog va psixologlarning vazifalari yoritilgan. Shuningdek, ta'nh-harakat tizimi nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ularga mos pedagogik-psixologik diagnostika, korreksion mashg'ulotlar va reabilitatsion yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada ta'lim jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan pedagogik va psixologik xatolarning oldini olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, ta'nh-harakat a'zolari buzilishi, pedagogik-psixologik yondashuv, diagnostika, korreksion ishlar, reabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar insonparvarlik, inkluzivlik va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslanadi. Ayniqsa, tayanch-harakat a'zolari buzilgan o'quvchilar ta'limini tashkil etish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga pedagogik-psixologik yondashuv kompleks, individual va reabilitatsion xarakterga ega bo'lishi lozim. Bu jarayonda o'quvchining jismoniy cheklanishlari bilan bir qatorda, uning emotsional holati, o'z-o'zini baholashi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ qobiliyatlari hisobga olinadi. Pedagogik yondashuv differensial ta'lim, adaptiv o'quv muhiti va maxsus pedagogik texnologiyalarga tayanadi. Psixologik jihatdan esa, ushbu toifadagi o'quvchilarda ijtimoiy izolatsiya, o'ziga ishonchning pasayishi kabi holatlarni bartaraf etish, motivatsiyani oshirish va ijtimoiy faollikni qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarida inkluziv ta'limni joriy etish hamda maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun teng ta'lim sharoitlarini yaratish davlatning ustuvor majburiyatlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu me'yoriy-huquqiy asoslar ta'lim tizimida insonparvarlik, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Prezident qarorlari va Hukumat dasturlarida inkluziv ta'limni tizimli rivojlantirish, maxsus pedagogik va psixologik kadrlar tayyorlash, shuningdek, ta'lim muassasalarini moslashtirilgan infratuzilma bilan ta'minlashga qaratilgan vazifalar belgilab berilgan. Bu esa tayanch-harakat a'zolari buzilgan o'quvchilarga nisbatan pedagogik-psixologik yondashuvni ilmiy asosda tashkil etish va uning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Prezidentimiz ma'ruza va nutqlarida, jumladan, “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida xalq ta'limi tizimida tub islohotlar o'tkazish, yosh avlodni ta'lim-tarbiya bilan qamrab olishda yangi yondashuvlarni joriy etish zarurligi alohida ta'kidlangan. Unda maktabgacha ta'lim tizimini kengaytirish, muqobil ta'lim shakllarini rivojlantirish, shu jumladan, uy bolalar bog'chalari, konsultatsiya punktlari hamda qishloq hududlaridagi ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish muhim vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Mazkur g'oya va qarashlar bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni kasbga yo'naltirish hamda mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lib, maxsus pedagogika va inkluziv ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda respublikamizdagi maxsus maktab-internatlarda faoliyat yuritayotgan pedagog-o'qituvchilar, tarbiyachilar tayanch harakat a'zolari buzilgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish



jarayoniga jiddiy qarashlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ichki imkoniyatlariga pedagogik-psixologik jihatdan yondashib, quyidagilarga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

- eng avvalo, o'z kasbi, sohasining yuqori malakali mutaxassisi bo'lishi (imkoniyati cheklangan o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlari, tibbiy ma'lumot haqidagi bilimlarga ega bo'lishi);

- o'quvchilar bilan ishlashga ko'p vaqt ajrata olishi (buning uchun pedagog mustahkam irodani o'zida shakllantirishi, nogironlar bilan ishlashga hoxish bo'lishi lozim);

- pedagogik-psixologik diagnostika ishlarini amalga oshira olishi (ta'lim-tarbiya berishda o'quvchi faoliyatining to'g'ri yo'nalishini belgilash va iqtidori, iste'dodini va qiziqishlarini hamda shaxs xususiyatlarini aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish);

- imkoniyati cheklangan bolalarning o'ziga xos psixologik xususiyati (ular asosan ish qobiliyatining passivligi, barcha psixik jarayonlarining orqada qolishi, idrokining passivligi, diqqatining yetishmasligi, xotirasining sustligi, o'z-o'ziga bo'lgan bahoning noadekvatligi, tortinchoqlik, odamoviylik, atrofdagilar bilan munosabatga kirishishdan o'zini olib qochishi kabi xususiyatlar bilan belgilanadi) va nutqiy rivojlanishini bilishi;

- imkoniyati cheklangan bolalarning psixik rivojlanishidagi barcha omillarni hisobga olishi (biologik-irsiy, ijtimoiy, ya'ni psixik rivojlanishning asab sistemasi va irsiyat yoki tashqi ta'sirotlar bilan bog'liqligi);

- hissiy va ijtimoiy sohalaridagi deprivatsiyani (yetishmovchilik), nutqiy muloqotga kirishishda va harakatlardagi qiyinchiliklarni ham inobatga olib, ularga yordam berishi (nogiron o'quvchilar ta'lim olish jarayonida asosan o'quv muassasasiga qarashli yotoqxonalarda, oila a'zolaridan holi ravishda yashaganlari uchun ularning ruhiyatida hissiy deprivatsiya (ota-ona yoki boshqa kishilar tomonidan beriladigan his-tuyg'ularning yetishmasligi) holatlari kuzatiladi).

Lekin o'rtadagi o'qituvchi va o'quvchi munosabatini ham unutmaslik, ularga achinish hissi bilan qaramaslik lozim. Shuningdek, o'quv faoliyati jarayonida bir xil uslubda, uzoq muddatli topshiriqlar berish ham ularning hissiy-irodaviy jihatdan zo'riqishini yuzaga keltirishi hamda boshqa faoliyatlarga bo'lgan qiziqishlariga ham salbiy ta'sir etishi mumkin.

Maxsus maktab pedagogi dars jarayonida qo'llaydigan o'yinlar, usullar hamda psixolog tomonidan ishlab chiqiladigan psixokorreksion mashg'ulotlardagi trening o'yinlarni tuzishda albatta imkoniyati cheklangan o'quvchilarning jismoniy va psixologik imkoniyatlarini e'tiborga olishlari o'ta muhimdir, chunki tayanch harakat a'zolarining buzilishi miya faoliyati yoki asab sistemasi bilan bog'liq bo'ladi. Ortiqcha xatti-harakatlar o'quvchilarda qo'zg'alish va tormozlanish jarayoniga bevosita ta'sir etishi, oqibatda esa bu ularning sog'liqlariga ham jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Mashg'ulotlarni shunday tarkibda tuzish kerakki, bunda o'quvchilarning harakatlarida zo'riqish bo'lmasligi, qo'l-oyoqlar harakati bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlarni ko'paytirmaslikka intilishi kerak. Trening mashg'ulotlari ko'proq suhbat shaklida, vaziyatlarni tahlil qilish va o'rindiqda o'tirgan holda yoki o'z o'rnida turgan holda hamda guruhning jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan ravishda o'tkazilishi lozim bo'ladi.

Quyidagi mashg'ulotlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning psixologik shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Men ishonch bilan harakat qila olaman, agar...” mashqi insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, dadil xatti-harakatlarga xalaqit beruvchi to'sikni yo'qotishga yordam beradi. Mashq oldidan har bir o'quvchiga qog'oz va ruchkalar tarqatiladi. O'quvchilar guruhlariga ajraladi. Har bir o'quvchi o'z qog'oziga ishonch bilan harakat qilishga xalaqit beruvchi to'siqlar nimalar ekanligini yozib chiqadi va kichik guruhlarda ularning har biri muhokama etiladi.



“Mening kelajagim” mashqini o‘tkazishda o‘quvchilar aylana bo‘lib o‘tiradilar. Boshlovchi ko‘rsatma beradi: “Kelinglar, bugun kelajagimizga nazar tashlaymiz. Barchangiz kelajakda ko‘nglingizdan hamma ish kelishini xohlasangiz kerak. Kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz. Hozir baland ovoz bilan galma-gal har biringiz zingingizning eng katta orzuvingiz haqida guruhga aytasiz. Har bir aytilgan so‘zdan keyin biz hammamiz baravariga qaytaramiz: ‘Sen buni uddalaysan, kelajakda bunga erishasan... va sening orzuving albatta amalga oshadi’. O‘yin o‘quvchilarning orzulari va tilaklari tugamaguncha davom etadi.

“Men birinchiman” mashqi o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga beradigan bahosini oshirish, har bir shaxsning o‘zida takrorlanmas va noyob xususiyatlar borligini anglatish. Psixolog ko‘rsatmasiga ko‘ra: har bir inson takrorlanmasdir. O‘ylab ko‘ring-chi, sizning takrorlanmas va o‘ziga xos xususiyatingiz nimada? Har biringizning, albatta, o‘ziga xos xususiyatingiz bor. “Men sohada birinchiman” deb o‘z xususiyatingizni aytishingiz lozim. Albatta, har biringiz bu vazifani uddalay olasiz, ammo hozir ushbu jumlaning noyob ohangda aytishi mumkin bo‘lgan 3 ishtirokchini o‘rnidan turishini so‘rayman, deb o‘quvchilarga murojaat qiladi.

“Ichki nur” mashqi o‘quvchilar o‘rindiqqa qulay o‘tirib, ko‘zingizni yumib, fikrlaringizni tinglashmoqda. Tasavvur qiling, boshingizning tepasida erkin nur paydo bo‘lmoqda. Bu nur asta-sekin yuqoridan pastga qarab iliq va tiniq holda ichingizdan sizning yuzingizni yoritib turibti nurning bir maromdagi harakatidan qoshingiz va labingiz atrofidagi chiziqlar silliqlanib, yuzingizning muskullari bo‘shashmoqda. Ensa qisimingizdagi zo‘riqish yo‘qolmoqda, yelkalarigiz ham zo‘riqishdan ozod bo‘lmoqda. Bosiq, vazmin, o‘ziga ishongan, o‘z hayotidan mamnunlik seza boshlayotgan yangiqiyofa shakllanmoqda. Mashg‘ulotni quyidagi so‘zlar bilan yakunlang: “Men yangi inson bo‘ldim!”, “Yosh va sog‘lomman!”, “Bosiq va vazminman!”.

“Baribir sen zo‘rsan” mashqida o‘quvchilar juftliklarga bo‘linadilar. Sheriklardan biri ikkinchisiga hayotida yuzaga kelgan murakkab vaziyat, biror noxushlik yoki o‘zining biror kamchiligi haqida gapirib beradi. Suhbatdoshi uni tinglab, shunday deydi: “Baribir sen zo‘rsan”, chunki ... (sababini aytadi).

Yuqorida ko‘rsatilgan mashg‘ulotlarni haftada 2–3-martadan 30–45 daqiqa davomida o‘tkazish hamda mashg‘ulotlarning turlarini ko‘paytirib, o‘zgartirib turish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘qituvchilar pedagogik-psixologik jihatdan bu toifadagi o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga qiziqtirishlari, shuningdek, shaxs sifatida shakllantirishda ayrim o‘ziga xos individual jihatlarga e‘tiborli bo‘lishlari hamda amaliy yordam berishlari talab qilinadi.

Buning uchun:

- o‘qituvchi va o‘quvchining kayfiyati ko‘tarinki ruhda bo‘lishi (asosan o‘qituvchi o‘zini nazorat qila olishi, shaxsiy muammolarini o‘quv jarayoniga ta’sir etmasligiga harakat qilishi orqali bunga erishishi mumkin);
- o‘quvchining ijtimoiy aloqa o‘rnatishga bo‘lgan xohishini cheklamaslik, qiziqtirgan savollariga javob berish (o‘qituvchi har bir o‘quvchini shaxs sifatida hurmat qilishi, ulardan o‘zini olib qochmasdan, mustahkam aloqa qilishga intilishi, achinish hissi bilan qaramasligi va ularni atrofda-gilar bilan ham munosabatga kirishishlariga yordam berishi);
- o‘quvchining o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosining adekvat bo‘lishini ta’minlash (bu orqali o‘quvchida o‘z kuchiga ishonch, maqsad sari intilish va faoliyat turlariga bo‘lgan qiziqish shakllanadi);
- o‘quvchi o‘zini kasal deb bilishiga yo‘l qo‘ymaslik (bunda o‘qituvchi o‘quvchini o‘ziga mos ravishda turli faoliyat bilan band qilishi, to‘garaklarga jalb qilish lozim);
- bolalar faolligini oshirish va mustaqil harakat qilishlariga imkoniyat yaratish (o‘qituvchi o‘quvchilarni pedagogik va psixologik jihatdan qo‘llab turishi, rag‘batlantirishi lozim).

Maxsus maktab pedagog va tarbiyachilari tayanch harakat a’zolari buzilgan bolalarni tibbiy jihatdan bilishlari va bolalarning davolanish vaqtidagi holatlarida sodir bo‘ladigan dinamik o‘zgarishlar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishlari kerak. Pedagogik-psixologik tekshiruvning sifatli tahlili hamda kasallikka to‘g‘ri



tashxis qo'yilishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri uyushtirishga yordam beradi. Shu orqali o'quvchining kamchiliklari, ehtiyojlarini chuqurroq va batafsil tushuna olishlari, nuqsonlarni to'g'rilash hamda yetishmayotgan ko'nikmalarni tarbiyalashga imkon beradi.

Pedagog va tarbiyachilar bu toifadagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'ymasliklari uchun quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

O'quvchilarning o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholamasliklari ularning ijobiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini baholashga to'sqinlik qiladi va bu ko'plab salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Bu toifadagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda jiddiy pedagogik (ta'lim-tarbiya berish usullarini to'g'ri qo'llay bilmaslik) – psixologik (o'quvchining shaxsiy sifatlarini o'rganmaslik, psixologik diagnostika ishlarini o'tkazishda e'tiborsizlik, psixologik korreksiya ishlarini amalda bajarmaslik) xatolarga yo'l qo'yish natijasida bolalarda o'ziga nisbatan salbiy munosabatlarning uyg'onishiga, harakatlanishdan, rivojlanishdan to'xtab qolishiga, ijtimoiylik va xulqida nuqsonlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida va oilada ularga qo'yiladigan talablarni kamaytirish o'quvchilarda bemorlik holatlarini kuchaytiradi va ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir qiladi.

O'qituvchilar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlanish darajasiga qiziqmasliklari, ular bilan yetarlicha aloqada bo'lmasliklari oqibatida o'quvchilarda nutq va ijtimoiy nutqiy rivojlanish susayishi va ijtimoiy ko'nikmalar, xulq-atvorni faol idrok etish shakllari va qiziquvchanlikning rivojlanishdan to'xtab qolishini kuchaytiradi (6).

Pedagogik-psixologik diagnostika ishining yana bir vazifasi bosqichma-bosqich tekshiruv ishi bo'lib, bunda bolaning davolanish vaqtidagi o'zgarishlarni, korreksion (tuzatish) va tarbiyaviy jihatlarida boladagi faqat ijobiy dinamik o'zgarishlarni ko'rsatmaslikni talab etadi. Bu bola bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik korreksion ishga o'z vaqtida o'zgartirish kiritish imkonini beradi. Yoshidan qat'iy nazar, tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalarni pedagogik-psixologik jihatdan o'rganishda bir qator o'ziga xos maqsadlar bo'lib, ilk bolalik, maktabgacha va maktab yoshi davrida asosiy e'tibor ulardagi bilish jarayonlarining shakllanishiga qaratilmog'i lozim, bunda ularni bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi korreksion ishni tashkil qilish orqali amalga oshirish kerak bo'ladi. O'smirlik va o'spirinlik davrida esa, bilish faoliyatidagi buzilishlar odatda chuqur xarakterga ega bo'lmaydi, faqatgina neyropsixologik tekshiruvga yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq, bu ularni ta'lim jarayonida va mehnat malakalarini egallashida ko'pincha qiyinchilik tug'diradi, shuning uchun ular ma'lum bir mehnat turlari haqida bilishlari va mehnatga oid maslahatlarni e'tiborga olishlari lozim bo'ladi. O'smirlik yoshida tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalarning bilish faoliyatini o'rganishga kam e'tibor beriladi, ammo birinchi galda shaxsiy xususiyatlari hamda ularning kasbiy maqsadlari o'rganiladi va aynan shu omillar ularning ijtimoiy mehnatga moslashishlarini belgilab beradi (3).

Yuqorida berilgan tavsiyalardan foydalanish imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan shaxslararo munosabat o'rnatishda, ularning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tayanch-harakat a'zolari buzilgan o'quvchilarga pedagogik-psixologik yondashuvni ilmiy asosda tashkil etish ularning ta'lim olish samaradorligini oshirish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va kelgusida mustaqil hayot faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv maxsus pedagogika va inkluziv ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Психолого-педагогическая диагностика под редакцией И.Ю.Левченко, С.Д.Забрамной. — М.:ACADEMA 2005. —193 с.
2. Н.М.Трофимова, С.П.Дуванова, Н.Б.Трофимова, Т.Ф.Пушкина. Основы специальной педагогики и психологии. – СПб.:Питер, 2005 г. —304 с.
3. Лидерс А.Г. Психологический тренинг с подростками. –М.: 2001 г. -156 с.
4. С.Н.Кавокина Профессиональная реабилитация и занятность инвалидов. – М.:1997 г. -155с
5. J.SH.Fozilov, U.Y.Fayziyev va boshqalar. O‘z farzandingga madad bo‘l. Imkoniyati cheklangan farzandlari bo‘lgan ota onalar uchun qo‘llanma. –T.: “Yurist-media markazi”, Nashriyot 2010.

